

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Oriental Universiteti Lingvistika (ingliz tili) magistranti

*Djumaniyazova Muxayyo Atabekovna*

*“Ingliz va o‘zbek tillaridagi inson ismlarida madaniyatni aks ettirishi”*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek ismlarining qo‘yilish tarixi, ismlarning qanday kelib chiqqanligi, ismlarning o‘zbek milliy madaniyati bilan o‘zaro uyg‘unligi va chet elda qo‘yiladigan ismlar va ularning mumkin bo‘lmagan variantlari ko‘rsatilgan va ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ismlar, ta‘qiqlangan ismlar, evfemizm, disfemizm, inglizcha ism, o‘zbekcha ism, mental xususiyat.

Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta‘sir ko‘rsatadi, deb ishonganlar. Bu kabi tasavvurlar nom kishining mohiyatidir, ism kishining o‘ziga o‘xshaydi, degan noto‘g‘ri tushuncha bilan bog‘liq. Shu sababli ham kishilar ongida “xosiyatli” va “xosiyatsiz” ismlar mavjudligi haqida turlicha ishonchlar yuzaga keladi. Bunday ishonchning xilma-xil ko‘rinishlari turli millat onomastikasidagi ismlarda va bolaga nom berish odatlarida yorqin ko‘rinadi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug‘ilgan bolaga qo‘yishmaydi. Chunki marhumning arvohi achchiqlanib qolishi, ism bilan birga ajal bolaga ham o‘tishi, yuqishi mumkin deb o‘ylashadi.

Shuningdek, goldarning o‘z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi, bolada yaxshi xislatlarni yuzaga keltiradi, yomon nom bu kishi uchun baxtsizlik, ofat, kasallik va o‘lim keltiradi, deb xayol qilishadi. Axir, shunday bo‘lmasa, o‘zi bilan nomdosh bo‘lgan kishi hayotida biror baxtsiz hodisa yuz bersa yoki u vafot etsa, o‘xshash ism egasi bo‘lgan gold o‘z ismini darrov boshqa biror nom bilan almashtirishga oshiqarmidi deysiz?! Armanlar bo‘lsa, bolamizga hayot bo‘lgan qarindoshning ismiga o‘xshash nom bersak, qarindoshning umri qisqarib qoladi deb o‘ylasharmidi?! Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P.Shimkevich, E.L.Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni to‘plashgan.

Ismning inson va uning taqdiri bilan bog‘liqligi haqidagi tasavvurlar turli-tuman va ko‘p qirralidir. Beloruslarning hamqishloq bo‘lgan jinni yoki aroxo‘rlarning nomiga o‘xshash ismlarni o‘z bolasiga qo‘yishdan qochishi ham keltirilgan odat bilan bog‘liqdir. Mana shunday noto‘g‘ri tasavvurlar ta‘sirida bo‘lgan o‘tmish kishilari o‘zlarini turli tasodif va odatlardan saqlamoq uchun, har xil tilsimotlarning qurboni bo‘lib qolmaslik uchun o‘z shaxsiy otlarini sir saqlaganlar. Nomni yashirmoq uchun bolaga bitta emas, ikkita ism berilgan. Bolaning asosiy nomi sir tutilgan va u ikkinchi ism bilan yuritilgan. O‘zbek oilalarida bitta bolaning bir davrning o‘zida ham Muhammadamin, ham To‘xtasin deb ikki nom bilan atashga ham duch kelishimiz mumkin.

Darhaqiqat, o‘zbek tilida shunday ismlar ham borki, ularda kishilarning o‘z farzandiga bo‘lgan eng yaxshi tilaklari, odamlarning orzu va intilishlari, zamonaviy ideallari o‘z yorqin ifodasini topgan.

Bolaga munosib, yaxshi nom tanlashga intilish – eng qadimiy odat. O‘tmishda ko‘pgina kishilarning bu masala yuzasidan xilma-xil fikrlar bayon qilganini ko‘ramiz. Masalan, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy bolaga nom qo‘yganda tanlanadigan ism kishiga munosib bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi va farzandingiz ulg‘ayganda o‘z otining noqulayligidan uyalmasin deydi:

Darhaqiqat, ismlar tarixi xalq tarixidir. Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos ism berish odatlari bo‘lgan. Chunonchi, ibtidoiy va urug‘chilik davrda berilgan ismlarda mardlik, qahramonlik, abjirlik tushunchalari, turli ilohiyashtirilgan tasavvurlar o‘z ifodasini topgan. O‘rta Osiyoda arablar istilosidan keyin Islom dini bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi ismlar paydo bo‘lgan. Bunda ko‘proq “Qur’on” ko‘rsatmalariga amal qilingan. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom 300 ta ish va harakatdan musulmonlarni qaytargan, ya’ni bu ishlarni makruh deb hisoblagan. Bulardan biri: “Farzandga ma’nosiz va nafratli nomlar qo‘yish”, ikkinchisi “Farzandga ortiqcha maqto‘vni eslatadigan ism qo‘yish (masalan, Valiyulloh kabi)”

Ko‘rinadiki, islomning bolani nomlash aqidasi asoslarini ismning ma’noli, mazmunli, kibr-u havodan xoli hamda chiroyli bo‘lishini tashkil qiladi. “Qur’on” va “Hadislar”da kishilarning bir-biriga laqablar, haqoratli nomlar qo‘yishini va odamni o‘sha laqab bilan atashni nihoyatda qoralaydi. “Hadis”da shunday deyilgan: “Kimki birovni o‘z nomi o‘rniga boshqa laqab bilan chaqirsa, uni farishtalar la’natlaydilar. Odamlarga laqab to‘qimangiz va laqablar bilan chaqirmangiz.”

Turli-tuman ilmiy nazariyalar va o‘rganilish tarixiga qaramay, antroponimikaning tizim sifatidagi ma’nosi va tabiati onomastika uchun dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Umuman onomastika va xususan antroponimiya uzoq vaqt davomida til va til nazariyasining periferik elementlari sifatida qabul qilingan. Zamonaviy olimlar uning ko‘p jihatdan o‘ziga xos bo‘lsa-da, semantikaga ega ekanligi va antroponimikaning ba’zi ichki qonuniyatlari borligini tan oladi. Ushbu tizimlilikning tabiati, masalan, bitta nomning tillararo variantlari hisobga olingan cheklovlariga ham bog‘liq. Ma’lum bir ijtimoiy qatlamning nomlash tizimi, boshqa oila va sulolalar doirasidagi nom berish tizimlariga xos bo‘lmasligi mumkin. Maqolada O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan ismlarning tarixi, ularning lug‘aviy ma’nosi hamda idrok etilish bilan bog‘liq nutqiy mezonlar tahlilga tortilgan. Xususan, evfemik tabiatli ismlarning disfemalashuviga misollar keltirilib, masalaga oydinlik kiritilgan. Muallif, bunday ismlarni O‘zbek ismlari lug‘ati tarkibidan olib tashlashni taklif etadi va tasnifiy metoddan foydalangan holda disfemalashgan ismlarni guruhlaydi.

Amerikalik tarjimonning asliyadagi Ila nomini The Chief of Ili Valley, ya’ni Ila vodiysining boshlig‘i, deb berishi, uning tarixiy manbalardan ana shu nom bilan ataluvchi vodi to‘g‘risida maxsus ma’lumot olganligidan dalolat beradi va buni asarning inglizcha nashriga yozgan so‘z boshida zikr etilganidek izohlaydi. Demak, ismlarning geografik nomlar, hayvon nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan davrini shunday aniqlashimiz va uni esa daslabki bosqich deb atash mumkin.

Turli madaniyatdan kirib kelgan serial qahramonlari ismlarini ta’qiqlash va uni ismlar ro‘yxatidan olib tashlash haqida, 2015 yilda Tojikistonda chaqaloqlarga serial qahramonlari ismini qo‘yishning ta’qiqlanish masalasi ko‘tariladi. Tojikcha ismlar reestri mamlakat prezidenti Emomali Rahmon tashabbusi bilan kiritilgan "bolalarga milliy qadriyatlarni inobatga olgan holda

ism tanlash taklifi" asosida qonuniy kuchga ega normativ hujjat sifatida qayd etiladi. Qayd qilish muassasalari ta'kidiga ko'ra, ba'zi ota-onalar o'z farzandiga tojikcha bo'lmagan ismlarni tanlar ekanlar, ismning kelib chiqishi tarixi, nima ma'noni bildirishini hatto bilmaydilar ham.<sup>12</sup> Bu muammo hatto siyosiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Zero, "Silive.com" nashri e'lon qilgan ismlar ro'yxati ana shunday maqsadga ega.

Shu o'rinda turli davlatlarda bolalarga qo'yish mumkin bo'lmagan ismlar ro'yxatini yodga olish joiz. Unga ko'ra:

1. Yangi Zelandiyada bolaga «Qirolicha», «Gersog», «Malika» va boshqa shu kabi ismlarni qo'yish taqiqlangan.
2. Kaliforniyada bolaga Xose dib ism qo'ysangiz uni an'anaviy (José) urg'usiz yozishga to'g'ri keladi. Bu yerda harf ustiga yoki ostida hech qanday diaktrik belgi qo'yish mumkin emas.
3. Islandiyada Kleopatra (Cleopatra) ismini qo'yish mumkin emas, chunki Islandiya alfaviti «C» harfi yo'q.
4. Germaniyada bolaga Lord ismini qo'yish mumkin emas. Chunki ba'zi chet tillarda Lord so'zi «Parvardigor» deb tarjima qilinib, xudoning ismlaridan birini angalatadi. Shuningdek, Lyufer ismini qo'yish ham mumkin emas.
5. Xitoyda islomiy, belgisi va lotin harflaridagi ismlar qo'yish mumkin emas.
6. Meksikaning ayrim hududlarida bolangizga Facebook ismini qo'ya olmaysiz.
7. Isroilda hech qaysi bolaga Xudo deb ism qo'yishga ruxsat berilmaydi.
8. Ispaniyadada Iuda deb ism qo'yish mumkin emas.
9. Rassel — Norvegiyada 1990 yilda voz kechilgan ismlardan biri.
10. Daniyadan Maymun ismli hech kimni uchratmaysiz.
11. Vengriyada Stiven (Stefan) ismini qo'yish mumkin emas.
12. Shvetsariyada yozuvda bitta J harfli bilan anglatiluvchi ism qo'yish mumkin emas.
13. Avstraliya ism sifatida Bishop (Yepiskop) va Saint (Avliyo) so'zlaridan foydalanish mumkin emas.

Xulosa o'rinda, ismlar kishining jamiyatdagi mavqei, kelajaganining yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarishini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. U qaysi tilgan olingan bo'lmasin eshinishi yoqimli, idrok etilishi qulay bo'lishi kerak. Evfemik niyatlar, ijtimoiy sabablar jamiyat umum qabul qilingan qoidalariga, yozilmagan lingvokulturologik qonunlarga bo'ysunishi kerak. Ismning go'zalligi faqat bir til egalari uchun go'zal bo'lishi kerak emas. Zero, o'zbek millatining yutuqlari natijasida ismlari ham dunyo oynasida o'z aksini topmoqda. Biz o'zbek ismlarini eng go'zallarini farzandamizga qo'yishimiz darkor. Bundan tashqari, xalq orasidagi "chaqaloq tug'ilganda ko'ziga nima ko'rinso shuni ism sifatida qo'yilgan"ligi haqidagi asoslanmagan tasavvur va taxminlar yo'q emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova X. O'zga tilli guruhlarda mental xususiyatga ega evfemizm va disfemizm hodisalarini tushuntirishning muhim jihatlari. // O'zbek tilini ikkinchi va xorijiy til sifatida

o'qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar. ToshDO'TAU, Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Toshkent, 2020 yil, 20 may.

2. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko- Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. -Chicago- London: University of Chicago Press.
3. Axmetov A. Turki Tilderinden tabu men evfemizmder. Almati: G'o'lo'm, 1995. 176 b.
4. Begmatov E. O'zbek ismlari. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Begmatov E.A. Ism chiroyi. - Toshkent: Fan, 1994. 74-75 B.; Begmatov E.A. Nomlar va odamlar. - Toshkent: Fan, 1966.
6. Березович Э.Л. Русская ономастика на современном этапе: критика // Известия академии наук. сэр написать лит-ры я. Т. 60, № 6. Ноябрь-декабрь